

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.31/13.06.2025.YU.178.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

ULUGBEKOV BAHODIR ABDASOVICH

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING SHA’NI,
QADR-QIMMATI VA ISHCHANLIK OBRO‘SINI FUQAROLIK-HUQUQIY
HIMOYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the Abstract of the Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Ulugbekov Bahodir Abdasovich

Ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilishni takomillashtirish 3

Улугбеков Баходир Абдасович

Совершенствование гражданско-правовой защиты чести, достоинства и деловой репутации сотрудников органов внутренних дел 23

Ulugbekov Bakhodir Abdasovich

Improving the civil-legal protection of honor, dignity and professional reputation of employees of internal affairs officers..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.31/13.06.2025.YU.178.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
MALAKA OSHIRISH INSTITUTI**

ULUGBEKOV BAHODIR ABDASOVICH

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING SHA’NI,
QADR-QIMMATI VA ISHCHANLIK OBRO‘SINI FUQAROLIK-HUQUQIY
HIMOYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Yu1148 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch til (o'zbek, rus, ingliz (rezyume))da Ilmiy kengash veb-sahifasi (ipkmvd.uz/uz/ilmiiyuridik/) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida(www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Kamalov Oybek Axmadovich
yuridik fanlar doktori, professor

Suvankulov Mexmonali Ismoilovich
yuridik fanlar nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.31/13.06.2025.Y.178.02 raqamli raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "15" 11 soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: Toshkent shahri, Bektemir tumani, X.Boyqaro ko'chasi, 27-A uy. Tel.:71-295-34-19. moi.@iiv.uz., kanselariya@exat.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (DU 0001 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Bektemir tumani, X.Boyqaro ko'chasi, 27-A uy. Tel.: (+998) 71-295-34-19.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "1" 11 kuni tarqatildi.

(2025-yil "1" 11 1- raqamli reyestr bayonnomasi).



A.A.Xakberdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, dotsent

A.A.Amanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori
(PhD), professor

F.F.Xatamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun dunyoda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, shu jumladan, ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini fuqarolik-huquqiy himoya qilish masalasiga davlat xizmatining samaradorligi va jamoat ishonchini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi. Shu bois, ularning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini huquqiy jihatdan himoya qilish nafaqat milliy huquq tizimida, balki jahon miqyosida ham muhim masala sifatida tadqiq etilmoqda. Xususan, BMTning huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga oid qator hujjatlarida xodimlarning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish inson huquqlarining biri sifatida qayd etilgan. Shunday bo'lsa-da, hozirgi axborot makonida, ayniqsa, raqamli platformalarda ma'lumot tarqatishning tezligi va qamrovi sha'n, qadr-qimmat va obro'-e'tiborga tajovuzni kuchaytirib, fuqarolik-huquqiy himoya vositalarining an'anaviy modellarini takomillashtirishni hamda yetkazilgan zararni baholash va qoplashning mukammal mezonlarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

Jahonda ichki ishlar organlari (politsiya idoralari) xodimlari jamiyatda tartib-intizomni o'rnatish, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashda beqiyos o'rin egallaydi. Shu bilan birga, mazkur soha xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini saqlash, ularni asossiz tanqid va tuhmatlardan himoya qilish masalasi har qachongidan muhim hisoblanadi. Bugungi kunda bu borada qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ichki ishlar xodimlariga nisbatan bildirilayotgan asossiz e'tirozlar, salbiy chiqishlar, qonuniy asosga ega bo'lmagan ayblovlar ularning sha'ni va obro'siga, xizmat faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy maqomini, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, shuningdek, ularning ishchanlik obro'siga yetkaziladigan zararlarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, mazkur masalani chuqur ilmiy jihatdan o'rganish va tegishli normativ bazani, tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar majmuyini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda amaldagi qonunchilik, odatda, sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilishning umumiy normalarini nazarda tutadi, biroq xizmat majburiyatlarini ijro etayotgan shaxs sifatida xodimning o'ziga xos huquqiy maqomi va jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan faoliyati jamiyat manfaatlari bilan bog'liq nozik muvozanatni doimo to'la va aniq inobatga olmaydi. Masalan, so'z erkinligi bilan shaxs obro'sini himoya qilish o'rtasidagi huquqiy tarozida ichki ishlar organlari xodimlari "jamoatchilik e'tiboridagi shaxs" sifatida kengroq tanqid doirasiga duch kelishi mumkin, ammo bu holat asossiz ayblovlar va haqoratni oqlamaydi. Xususan, 2022–2023-yillar davomida o'z xizmat vazifasini bajarayotgan yo'l patrul xizmati xodimlari fuqarolar tomonidan 253 marta foto va videotasvirlarga olinib, Internet tarmoqlarida tarqatilgan¹. Shu bilan birga, 2024-yilda ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyatiga nisbatan sodir etilgan 294 ta qarshilik ko'rsatish holati bo'yicha 154 ta jinoyat ishi qo'zg'atilib, ular bo'yicha 95 nafar fuqaro jinoiy, 152 nafari

¹ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/02/iiv/>

esa ma'muriy javobgarlikka tortilgan¹. Aynan shu o'tkir nuqta – o'z yechimini kutayotgan dolzarb masala fuqarolik-huquqiy doktrinada aniq, prognoz qilinadigan va sud amaliyotiga yo'llanma beradigan nazariy konsepsiya va amaliy modellar hamda qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilishini talab etadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (2023), Fuqarolik kodeksi (1995), Jinoyat kodeksi (1994), "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeks (1994), Fuqarolik-protsessual kodeksi (1994), "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi (1997), "Axborotlashtirish to'g'risida"gi (2003), "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi (2007) hamda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi (2016) Qonunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021) hamda "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (2022) Farmonlari, shuningdek, "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2023) qarori va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilish bilan bog'liq masalalar bir qator milliy va xorijiy olimlar hamda tajribali amaliyotchilar tomonidan tadqiq etilgan.

Fuqarolik huquqiy himoya qilish obyekti sifatida sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si masalalari milliy sivilist olimlar H.R.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, O.Oqyulov, Sh.N.Ro'zinazarov, D.M.Karaxodjayeva, R.J.Ro'ziyev, K.Q.Rashidov, S.S.Gulyamov, I.R.Rustambekov, M.X.Baratov va N.F.Imomovlar asarlarida tahlil qilingan. Shuningdek, shaxsiy-nomulkiy huquqlarni fuqarolik huquqiy himoya qilish va ma'naviy zararni qoplash bilan bog'liq masalalar T.A.Umarov, I.I.Nasriyev, B.Xamrakulov, A.Xolmatov, I.B.Yakubova va A.A.Xasanovlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, T.Umarov fuqarolarning shaxsiy-nomulkiy huquqlari va ularni fuqarolik huquqiy vositalar orqali himoya qilishni, I.I.Nasriyev shaxsiy-nomulkiy huquqlarni himoya qilishda ma'naviy zararni qoplashni, I.B.Yakubova O'zbekiston va Yaponiya qonunchiligi bo'yicha shaxsiy-nomulkiy huquqlarning himoya qilinishi doirasida ma'naviy zararning qoplanishini, S.F.Inoyatova ma'naviy ziyonni qoplashning umumiy masalalarini, N.H.Egamberdiyeva fuqaroning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararlarni qoplash doirasida ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilishni, R.A.Xonnazarov² esa nomoddiy ne'matlarga yetkazilgan zararni undirishning fuqarolik huquqiy muammolarini tahlil qilingan.

Xorijiy mamlakatlarda sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilish bilan bog'liq masalalar nazariy va amaliy jihatdan S.N.Bratus,

¹ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Shaxsiy xafvsizlik bosh boshqarmasi taqdim etgan ma'lumotlar asosida.

² Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan.

O.S.Ioffe, A.M.Erdelevskiy, M.M.Agarkov, L.Anisimov, Ye.A.Yerofeyeva, A.V.Belyavskiy, V.Bespalov, L.O.Krasavchikova, S.V.Narijniy, M.N.Maleina, N.K.Rudiy, A.A.Vlasov, I.A.Pokrovskiy, T.V.Cherkasova, I.V.Lokov, M.L.Shelyutto, Z.B.Xavjokova, A.R.Gusalova va Ye.G.Komissarova¹lar tomonidan tadqiq qilingan.

Yuqoridagi olimlar va mutaxassislar sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini umumiy tarzda fuqarolik huquqining obykti nuqtayi nazaridan kelib chiqib tadqiq etganlar. Ammo ularning ishlarida ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilish tushunchasi va mazmun-mohiyatiga doir masalalar batafsil ochib berilmagan. Tadqiqot ishimiz yuqorida keltirib o'tilgan olimlarning ishlaridan farqli o'laroq ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilishni ta'minlash nuqtayi nazaridan qiyosiy tadqiq etishga bag'ishlangan. Ishda ilmiy-nazariy xulosalar va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar hamda amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Malaka oshirsh instituti tadqiqot rejasiga kiritilgan va ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan (2023-2025-yillar).

Tadqiqotning maqsadi ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilishni tadqiq etish hamda uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilish obykti sifatida nazariy-huquqiy jihatdan tadqiq etish;

sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilishning huquqiy tabiati, mohiyati va shartlarini o'rganish va tadqiq etish;

sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini huquqiy himoyaning umumiy mexanizmida fuqarolik huquqiy himoya qilishning o'rni ko'rsatib berish;

ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilishning zaruratini asoslash va huquqiy asoslarini tahlil qilish;

mavjud nazariyalar va huquqiy asoslarni tahlil qilish orqali fuqarolik huquqiy kafolatlarning ahamiyatini asoslash;

fuqarolik huquqiy kafolatlar tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilishning fuqarolik huquqiy usullarining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish;

ommaviy axborot vositalari tomonidan zarar yetkazish holatlarida ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatish oqibatida yetkazilgan zarar va ma'naviy ziyon uchun fuqaroviy-huquqiy javobgarlik asoslarini aniqlash va tahlil qilish;

¹ Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan.

ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilish sohasida qonunchilik hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilishni ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilishni tartibga soluvchi xalqaro standartlar, ilg'or xorijiy tajriba va milliy huquqiy asoslar, huquqni qo'llash amaliyoti va yuridik fanda mavjud bo'lgan ilmiy-nazariy yondashuvlar, qarashlardan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot olib borishda tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy, ijtimoiy so'rov, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, empirik materiallar va statistik ma'lumotlar tahlili, qonun hujjatlarini ilmiy sharhlash, huquqni qo'llash amaliyotini tahliliy o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tele-, radio-, video va kinoxronikal dasturlar hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa elektron shakllari tahririyati tomonidan olingan raddiya yoki javob aynan o'sha dastur yoki turkumda, kelgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay efirga berilishi asoslab berilgan;

o'zining sha'niga haqoratlovchi gaplar aytilgan, shuningdek, tuhmat qilingan, yolg'on axborotlar tarqatilgan fuqaro bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxsni jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortish haqida tegishli organlarga murojaat qilishga haqliligi asoslab berilgan;

"E-ijtimoiy-himoya.iiv.uz" yagona interaktiv xizmatlar portali – ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning barcha chora-tadbirlarini yagona tizimga qamrab oluvchi va mazkur sohadagi interaktiv xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutuvchi onlayn elektron murojaatlar portali tushunchasi asoslab berildi;

intellektual faoliyat erkinligi yoxud ijodiy faoliyat olib borish huquqi boshqa shaxslarning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'siga putur yetkazishga, qonunga xilof harakatlarga undash yoki ularni targ'ib qilishga qaratilmasligi hamda jamiyatda qabul qilingan axloq qoidalariga zid bo'lmasligi asoslab berildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilgan noto'g'ri ma'lumot uchun raddiya berilgan kundan boshlab tahririyat tomonidan bir oydan kechiktirmay efirga berish tartibi asoslab berilgan;

ichki ishlar organlari xodimlari o'z sha'ni va qadr-qimmatiga yetkazilgan ma'naviy zararning, shu jumladan, sud muhokamasi, tuhmat qilish yoki soxta ayblovlar bilan bog'liq xarajatlarning sug'urta tovonini olish huquqiga egaligi asoslab berilgan;

bosh muharrir, shuningdek, jurnalist ommaviy axborot vositalarida haqiqatga mos kelmaydigan materiallarni tarqatgani uchun, basharti tarqatilgan axborot jismoniy yoki yuridik shaxslarning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'siga putur yetkazgan bo'lsa, shu jumladan, ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni va ishchanlik obro'siga putur yetkazilgan bo'lsa, javobgar bo'lishi asoslangan;

huquqni muhofaza qilish organlari mansabdor shaxslarining huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, shu jumladan, tuhmat qiluvchi materiallarga

nisbatan tezkor munosabat bildirish, shuningdek, xodimlarni huquqiy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan;

ichki ishlar organlari xodimlari va jurnalistlar uchun, ayniqsa, nozik mavzularda axborotni tarqatish qoidalari va tamoyillari bo'yicha o'quv tadbirlarini o'tkazish, tuhmat qiluvchi ma'lumotlar tarqalishining oldini olish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ommaviy axborot vositalari vakillari o'rtasidagi o'zaro tushunishni yaxshilashi asoslantirilgan;

shaxsning, shu jumladan, ichki ishlar xodimining sha'ni, qadr-qimmat, ishchanlik obro'siga putur yetkazilgan, Internetda tuhmat qiluvchi ma'lumotlarning tarqalishidan zarar ko'rgan taqdirda, yetkazilgan zararga mos ravishda huquqbuzarga nisbatan javobgarlik choralari qo'llanilishini talab qilishi hamda fuqarolik huquqiy tartibda ma'naviy zarar undirishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda ilg'or xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan va tavsiya etilgan metodlardan foydalanilgan. Xalqaro ilmiy bazalar (<https://www.scholar.google.com>, <https://www.jstor.org>, <https://www.sciencedirect.com>, <https://www.proquest.com>, <https://heinonline.org>) hamda boshqa rasmiy manbalardan olingan ishonchli ma'lumotlar asosida nazariy-ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Tadqiqot mavzusiga oid o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlarda 402 nafar fuqaro hamda 129 nafar ichki ishlar xodimi ishtirok etgan. Tadqiqot olib borish jarayonida bildirilgan ayrim takliflar amaliyotga joriy etilgan va bu tegishli vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan. Tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy-nazariy tahlil asosida olingan natijalardan ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, ilmiy tahlillar o'tkazish hamda fuqarolik huquqida sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik hujjatlariga sharhlar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan norma ijodkorligi faoliyatida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, tegishli sohada nizolarni tartibga solishda, shuningdek, oliy yuridik ta'lim muassasalarida fuqarolik huquqi fanini o'qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si borasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotning ilmiy natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

tele-, radio-, video va kinoxronikal dasturlar hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa elektron shakllari tahririyati tomonidan olingan raddiya yoki javob aynan o'sha dastur yoki turkumda, kelgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay efirga berilishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining fuqarolik ishlari bo'yicha ayrim qarorlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida 2023-yil 20-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 32-sonli qarorining 1-bandi bilan Oliy sud Plenumining 1992-yil 19-iyundagi 5-sonli qarori 3-bandining ikkinchi xatboshisida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 3-dekabrda 08/914-24-son dalolatnomasi). Ushbu taklif ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilgan noaniq yoki haqiqatga zid ma'lumotlar bo'yicha raddiya yoki javobni o'z vaqtida taqdim etish imkoniyatini yaratishga xizmat qilgan;

o'zining sha'niga haqoratlovchi ma'lumotlar aytilgan, shuningdek, tuhmat qilingan, yolg'on axborotlar tarqatilgan fuqaro bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxsni

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 139, 140 va 1413-moddalariga ko‘ra, jinoiy javobgarlikka yoki O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksining 40-, 41- va 2022-moddalariga ko‘ra, ma‘muriy javobgarlikka tortish haqida tegishli organlarga murojaat qilishga haqliligi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining fuqarolik ishlari bo‘yicha ayrim qarorlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida 2023-yil 20-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 32-sonli qarorining 1-bandi bilan Oliy sud Plenumining 1992-yil 19-iyundagi 5-sonli qarori 8-bandining uchinchi xatboshisida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 3-dekabrdagi 08/914-24-son dalolatnomasi). Ushbu taklif fuqarolarning sha‘ni va qadr-qimmati tahqirlangan yoki qonuniy manfaatlari buzilgan holatlarda o‘z sha‘nini himoyalash maqsadida murojaat qilish huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashga va jamiyatda axborot tarqatish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilgan;

“E-ijtimoiy-himoya.iiv.uz” yagona interaktiv xizmatlar portali – ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilishning barcha chora-tadbirlarini yagona tizimga qamrab oluvchi va mazkur sohada interaktiv xizmatlar ko‘rsatishni nazarda tutuvchi onlayn elektron murojaatlar portali” tushunchasini kiritishga oid taklif Ichki ishlar vazirining 2022-yil 1-oktabrdagi 404-sonli buyrug‘iga ilova qilingan “Ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilish faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi Nizomning 3-bandida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va kadrlar bilan ta‘minlash departamentining 2025-yil 24-martdagi 2/1473-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklif asosida ichki ishlar tizimida ijtimoiy himoyaga oid murojaatlar elektron tarzda qabul qilinishi hamda ichki ishlar xodimlarining shaxsiy murojaatlarini tezkor ko‘rib, hal etishga xizmat qilgan;

intellektual faoliyat erkinligi yoxud ijodiy faoliyat olib borish huquqi boshqa shaxslarning sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sigga putur yetkazishga, qonunga xilof harakatlarga undash yoki ularni targ‘ib qilishga qaratilmasligi hamda jamiyatda qabul qilingan axloq qoidalariga zid bo‘lmasligi kerakliligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 30-sentabrdagi “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida”gi O‘RQ-970-son Qonunining 7-moddasi 3-qismida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 5-maydagi №3/dn-86-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif asosida ijod erkinligiga ega bo‘lgan jurnalist yoki blogerlar ahamiyat berishi lozim bo‘lgan inson sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sining tegishli holatlarda himoya qilinishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika darajasidagi ilmiy konferensiyada, jami 6 ta anjumanda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, xususan, xorijiy ilmiy axborot manbalarida 2 ta, ilmiy jurnallarda 4 ta, konferensiya materiallari to‘plamida 4 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 9 ta paragrafnii qamrab olgan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashqari 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "*Sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilish institutining umumiy tavsifi va mazmun-mohiyati*", deb nomlanib, unda sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si tushunchalari fuqarolik huquqiy himoya qilish obykti sifatida ko'rib chiqiladi hamda sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilishning huquqiy tabiati, mohiyati va shartlari, shuningdek, huquqiy himoyaning umumiy mexanizmida fuqarolik huquqiy himoya qilishning o'rni kabi masalalar tahlil qilinadi.

Dissertant fuqarolik huquqida sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish institutining ahamiyatini tahlil qilar ekan, raqamli texnologiyalar davrida inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishning g'oyat muhimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u sha'n va qadr-qimmat tushunchalarini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan chuqurroq o'rganish zarurligiga e'tibor qaratadi. Muallifning fikricha, sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si ijtimoiy munosabatlar sohasida ijtimoiy va axloqiy manfaatlar sifatida harakat qiladi. Fuqarolik huquqining sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilishning mohiyati jabrlanuvchiga rad etishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan himoya huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi va keyinchalik amalga oshirilishi bilan bog'liq majburiyatni yuklaydi. Sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si qonun bilan qo'riqlanadigan nomoddiy ne'matlar va maxsus subyektiv huquqlar hisoblanadi, ular fuqarolik huquqiy layoqat mazmunining bir qismi va uning elementidir.

Muallif bu sohadagi turli ilmiy yondashuvlarni tahlil qilib, "sha'n" "qadr-qimmat" va "ishchanlik obro'si" kabi tushunchalarning huquqiy mohiyatiga oid qarashlar o'rtasidagi farqlarga e'tibor qaratadi. Xususan, u ushbu tushunchalarni alohida toifalar sifatida ko'ruvchi olimlar hamda ularni o'zaro bog'liq toifalar deb hisoblaydiganlar qarashlarini o'rganadi.

Tadqiqotchi qonunchilikda va huquqiy nazariyada mazkur tushunchalarning aniq ta'rifi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi normativ va huquqni qo'llash amaliyotida noaniqliklarni keltirib chiqarishini, sud amaliyotida sha'n va qadr-qimmatni himoya qilish bo'yicha aniq yondashuvlar yo'qligi sababli, har bir ishda individual yondashuv talab etilishini ta'kidlaydi.

Dissertant fikriga ko'ra, amaliyotdagi muammolardan biri ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali insonning sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini tahqirleydigan yolg'on ma'lumotlarning tarqatilishi bo'lib qolmoqda. Sud qarorlari va qonunchilikda ma'lum himoya choralari ko'zda tutilgan bo'lsa-da, bu choralarning sekin qo'llanilishi va ba'zi hollarda jabrlanuvchining o'z huquqlarini

himoya qila olmasligi muammoni yanada chuqurlashtirmoqda. Yechim sifatida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy platformalarda sha'n va qadr-qimmatni kamsitishga qarshi profilaktik choralarni kuchaytirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalari uchun tezkor rad etishning huquqiy va ma'muriy mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslab beriladi. Huquqni muhofaza qilishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda avtomatlashtirilgan monitoring va zararni baholash tizimini ishlab chiqish ham samarali yechim bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Tadqiqotchi tahlillarga tayangan holda, ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqlari himoyasi obyekti sifatida keng qamrovda talqin qilish zarurligini ta'kidlab, obro' va ishchanlik obro'si o'rtasida farq mavjudligi, obro' shaxsning ijtimoiy ahamiyatli sifatiga asoslangan ijtimoiy baholarini ifodalasa, ishchanlik obro'si uning kasbiy mahorati va malakasini aks ettirishini, shuningdek, nafaqat tadbirkorlik subyektlariga, balki boshqa kasb egalarining obro'si bilan bog'liq holatlarni inobatga olgan holda, yuridik atamalarga o'zgartirish kiritish taklif sifatida ilgari suriladi.

Dissertant o'z tadqiqotida fuqarolik huquqida sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish masalalarini yoritishda bir qator olimlarning ilmiy yondashuvlarini ko'rib chiqadi. Jumladan, M.M.Agarkov, A.L.Anisimova, A.V.Belyavskiy, S.N.Bratus, O.S.Ioffe, L.O.Krasavchikova kabi olimlarning asarlari muallifning tahliliy fikrlariga asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, Y.V.Molochkov, M.N.Malein va A.M.Erdelevskiy kabi olimlarning ishlari orqali sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'si tushunchalarining turli yondashuvlari muhokama qilingan.

Tadqiqotchi jismoniy va yuridik shaxslarning sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilishning huquqiy tabiatini, mohiyati va shartlarini yoritib beradi. Har bir fuqaro o'z huquq va erkinliklarini qonun bilan taqiqlanmagan har qanday vositalar bilan himoya qilish huquqiga ega hamda sud orqali himoyalani O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi bilan kafolatlanadi. Sha'n, qadr-qimmat, ishchanlik obro'si va boshqa nomoddiy ne'matlar bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunlarga muvofiq, ularda belgilangan hollarda va tartibda, shuningdek, bunday hollarda fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish buzilgan nomoddiy huquqning mohiyati va ushbu huquqbuzarlik oqibatlarining mohiyati darajasiga qarab vujudga keladi.

Muallif nomoddiy ne'matlarning huquqiy jihatlariga e'tibor qaratadi. Bu ne'matlar nomoddiy tabiatga ega bo'lishiga qaramay, ular egasidan ajralmas bo'lib, fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Shuningdek, O'zbekistonda shaxsiy-nomulkiy huquqlarni tartibga solish va himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi va ushbu toifalarni qonunchilik bilan himoya qilishga nisbatan kompleks yondashuv zarurligi alohida ta'kidlanadi.

E'lon qilingan material tufayli huquqlari va qonuniy manfaatlar buzilgan yuridik va jismoniy shaxslar mazkur ommaviy axborot vositalari orqali raddiya yoki javobni e'lon qilishga haqlidir. Raddiya yoki javob berilishiga sabab bo'lgan material ayni o'sha sahifada maxsus rukn ostida e'lon qilinishi kerak. Raddiya yoki javob gazetalarda ular olingan kundan e'tiboran bir oy ichida, boshqa davriy nashrlarda esa navbatdagi sonda e'lon qilinishi shart. Tele-, radio-, video va kinoxronikal dasturlar hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa elektron shakllari tahririyati tomonidan olingan raddiya yoki javob aynan o'sha dastur yoki turkumda, kelgan kundan e'tiboran bir

oydan kechiktirmay e'firog beriladi. Agar raddiya yoki javobni e'lon qilish hajmi va vaqti ommaviy axborot vositasining faoliyatiga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, matn axborot manbai yoki muallif bilan kelishilgan holda, asoslangan tahrir qilishga yo'l qo'yiladi. Ommaviy axborot vositasi raddiya yoki javobni e'lon qilishdan bo'yin tovlasa yoxud ularni e'lon qilish uchun belgilab qo'yilgan muddatni buzsa, yuridik yoki jismoniy shaxs da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

Ma'naviy (mulkiy bo'lmagan) zararining miqdorini belgilashda sud fuqaroning sha'ni va qadr-qimmatini oyoqosti qilgan, obro'sini to'kkan maqolaning mazmuni va mohiyatini, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni e'lon qilgan ommaviy axborot vositasi yoki muayyan shaxsning ayb darajasini shu modda bilan bog'liq bo'lgan boshqa e'tiborga molik holatlarni hisobga oladi.

Shaxsning sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini huquqiy himoya qilishning umumiy mexanizmida fuqarolik huquqiy himoyasi o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda buquqiy himoyaning yurisdiksiyaviy va noyurisdiksiyaviy shakllarini qamrab olgan murakkab tuzilishiga alohida e'tibor berilgan. Fuqarolarga o'z sha'ni va qadr-qimmat kabi nomoddiy ne'matlarni mustaqil ravishda himoya qilish, shuningdek, davlat organlariga yordam so'rab murojaat qilish imkoniyati berilgan. Bunda himoya mexanizmi to'g'ridan to'g'ri harakatlarni ham, huquqni qo'llash amaliyotida moslashuvchanlikning muhim elementi hisoblangan ayrim talablardan o'zini tiyishni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Dissertant fikriga ko'ra, fuqaroning sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi yolg'on ma'lumotlar, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarning tarqalishi natijasida yetkazilgan zararni bartaraf etish ushbu huquqiy munosabatlarning funksiyasi sifatida qaralishi kerak. Fuqarolik huquqiy munosabatlarni vujudga keltirgan istalgan yuridik faktning paydo bo'lishining dastlabki sharti aynan ko'rib chiqilayotgan nomoddiyalarini obro'sizlantiradigan ma'lumotlarni tarqatish hisoblanadi.

Fuqaroning sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish huquqiy munosabatlarning maxsus mexanizmini talab qiladi. Bunda fuqarolik huquqlari sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish imkonini beradigan alohida usul va vositalarni o'z ichiga oladi, shuningdek, bu huquqlar konstitusiyaviy, jinoiy va ma'muriy huquq bilan himoya qilinadi.

Fuqarolik qonunchiligi sha'n, qadr-qimmat va obro'-e'tiborni poymol etilguniga qadar ushbu nomoddiy ne'matlarni ko'rib chiqilayotgan huquqiy munosabatlarning mutlaq xususiyatidan kelib chiqadigan "ularni buzmaslik bo'yicha umumiy majburiyatni belgilash" orqali himoya qiladi. Aniqroq qilib aytganda, ushbu nomoddiy ne'matlarga tahdid qilingan paytdan boshlab fuqarolik huquqi normalari butun himoya mexanizmining muhim bo'g'ini bo'lgan aniq himoya choralari (usullarini) belgilash orqali tartibga solinadi. Fuqarolik huquqiy himoya usullari – bu fuqarolik huquqiy himoya maqsadlariga erishiladigan qonun hujjatlarida belgilangan uslublar va vositalar majmuyidir. Ularga buzilgan huquqlarni tiklash, yetkazilgan zararni qoplash, bir tomonlama va ikki tomonlama tiklashning oldini olish, huquqni tan olish va boshqalar kiradi.

Dissertatsiyaning "*Ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari*" deb nomlangan ikkinchi bobida ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilishning zarurati, huquqiy asoslari,

fuqarolik huquqiy usullari, ommaviy axborot vositalari tomonidan haqiqatga to'g'ri kelmaydigan malumotlarni tarqatish orqali zarar yetkazish holatlarida ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan.

Dissertant ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini fuqarolik huquqiy himoya qilish zaruratini asoslab, ijtimoiy shaffoflik va ommaviy axborot vositalarining faolligi ortib borayotgan sharoitda huquqiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati haqida borasida tahlil qiladi. Jamoatchilik nazoratining roli va xususiy hamda davlat ommaviy axborot vositalarining xodimlarning obro'siga tobora ortib borayotgan ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Huquq-tartibot xodimlariga nisbatan ijtimoiy hurmatni qo'llab-quvvatlash nafaqat ularning shaxsiy himoyasining bir qismi, balki umuman hokimiyat organlariga bo'lgan ishonchning elementi ekanligi ko'rsatib o'tiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish ularning professional maqomi va jamoatchilik e'tiborini saqlash uchun muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlanadi. O'zbekistonda bu sohada jinoiy va ma'muriy-huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, fuqarolik huquqiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavjudligi asoslanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega, chunki ularning kasbiy sharafi butun tizim xodimlarining ma'naviy obro'sini namoyon qiladi. Ichki ishlar xodimi o'z ishini qanday bajarayotganidan kelib chiqib, fuqarolar ichki ishlar organlarining butun tizimi haqida tasavvur hosil qiladi. Shu munosabat bilan ichki ishlar organlarining obro'-e'tibori aholi ko'z o'ngida salbiy tasavvurga ega bo'lib qolmasligi uchun soha xodimlarining sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilinayotgan barcha holatlarga nisbatan qonun doirasida o'z vaqtida asosli javob berish va munosabat bildirish, zarur hollarda himoya mexanizmlaridan foydalanish lozim hisoblanadi. Bu ichki ishlar organlari xodimlarini obro'si va imijini ko'tarish, ular bilan ishonch va hurmatga asoslangan munosabatda bo'lishga ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Dissertant I.I.Nasriyev, B.M.Xamrakulov, T.Nurkayeva, S.Sherbakov, Ye.B.Abakumova, A.V.Komissarov, D.Y.Tarasovlar, P.K.Pak, V.M.Sedov, A.A.Vlasov kabi sivilist olimlarning diffamatsiya huquqi hamda ma'naviy zararni undirishga oid nazariy fikrlarini chuqur tahlil qiladi.

Tadqiqotda bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilishning dolzarbligi bir necha omillar bilan bog'liq ekanligi, Internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali, videoxostinglarda ularning sha'ni, qadr-qimmatini kamsituvchi va obro'sini toptovchi holatlar kuzatilishiga oid tahlillar keltiriladi. Bu turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi, qasddan haqoratli so'zlar aytish, masxaralash, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat kiyim-boshisini kulgi ostiga qo'yish, turli hajviy janrda videolar tayyorlash va videoxostingga joylashtirish kabi ko'rinishdagi xatti-harakatlar mavjud bo'lib, ular ichki ishlar organlari xodimlari haqida jamoatchilik fikrining salbiy tomonga shakllanishiga sabab bo'layotgani misollar orqali ko'rsatib beriladi.

Tadqiqotchi fikriga ko'ra, hozirda ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, Internet tarmog'i orqali axborot tarqatish imkoniyatlari kengayib, aholi orasida faollik ortib bormoqda. O'zbekistonda Internet foydalanuvchilari soni 2024-yil boshida

30 milliondan oshgan bo‘lib, ularning asosiy qismini mobil foydalanuvchilar tashkil qiladi. Bu axborot tarqatishdagi imkoniyatlarni kengaytirgan bo‘lsa-da, ommaviy axborot vositalarining mas‘uliyati masalasini ham kun tartibiga olib chiqmoqda. Yo‘l patrul xizmati kabi davlat organlari xodimlari faoliyatini foto va video orqali yoritish holatlari ko‘paymoqda, bu esa huquqiy jihatdan yetarli asosga ega bo‘lmagan ma‘lumotlar tarqalishi xavfini tug‘dirmoqda.

Milliy va xalqaro qonunchilikka ko‘ra, ommaviy axborot vositalari so‘z erkinligi bilan bir qatorda, tarqatiladigan ma‘lumotlar uchun javobgarlikni ham zimmasiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunda axborotni tarqatish, tahrirlash va javobgarlik masalalari aniq belgilab berilgan. Biroq fuqarolarning sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sigga putur yetkazuvchi ma‘lumotlar tarqalganda, buning oqibatlarini huquqiy baholash zarurati tug‘iladi. Axborotni tarqatish shakli – Internetdagi ommaviy chiqish yoki mahalliy yig‘ilish uning ta‘sir doirasiga va huquqiy oqibatlariga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, axborot tarqatishda mas‘uliyatli yondashuv talab etilishini dissertant asoslab beradi.

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligi (AQSh, Shvetsiya, Avstriya, Shveysariya, Germaniya)da ommaviy axborot vositalari orqali yetkazilgan zarar uchun fuqarolik, jinoiy va ma‘muriy javobgarlik o‘rnatilgani hamda *diffamatsiyani* alohida qonunlar bilan tartibga solish amaliyoti qo‘llab kelinayotganligi tahlil qilingan.

MDH tajribasi ham ichki ishlar organlari xodimlarini himoya qilishda maxsus normativ-hujjatlar asosida fuqarolik huquqiy himoyaning alohida mexanizmlarini yaratishni nazarda tutadi. O‘zbekiston qonunchiligida bu borada bir nechta normalar mavjud bo‘lib, xodimlarning sha‘ni va ishchanlik obro‘sini himoya qilish maqsadida ma‘lumot tarqatish mexanizmini yanada takomillashtirish lozimligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlarining davlat vakillari sifatidagi huquqiy maqomi ularning nomoddiy huquqlarini himoya qilishning maxsus choralarini talab qilishi ta‘kidlangan. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasi va O‘zbekiston qonunchiligi qoidalari kabi xalqaro va milliy huquqiy qo‘llab-quvvatlash misollari xodimlarning obro‘sini himoya qilishga imkon beradigan fuqarolik huquqiy vositalarning, shu jumladan, raddiya berish va ma‘naviy zararni qoplash huquqining muhimligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda noto‘g‘ri ma‘lumotlarni majburiy rad etish, ma‘naviy zararni qoplash va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga nisbatan ijtimoiy xulq-atvorni tartibga solish kabi asosiy himoya usullari ajratib ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning “*Ichki ishlar organlari xodimlarining sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sigga yetkazilgan zarar hamda ma‘naviy ziyon uchun javobgarlik asoslari*” deb nomlangan uchinchi bobida ichki ishlar organlari xodimlarining sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sigga putur yetkazuvchi ma‘lumotlarni tarqatish oqibatida yetkazilgan zarar va ma‘naviy ziyon uchun fuqaroviy-huquqiy javobgarlik asoslari va tarkibi, ichki ishlar organlari xodimlarining sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sigga putur yetkazuvchi ma‘lumotlarni tarqatganlik uchun ommaviy axborot vositalarining fuqaroviy-huquqiy javobgarligi masalalari, fuqarolik huquqiy himoya qilish sohasida qonunchilik hujjatlari va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish istiqbollari tahlil qilingan.

Muallif ichki ishlar organlari xodimlarining sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sigga putur yetkazuvchi ma‘lumotlarni tarqatish oqibatida yetkazilgan ma‘naviy zarar uchun fuqaroviy-huquqiy javobgarlikni belgilashda bir qator muhim jihatlarga

alohida ahamiyat qaratgan. Jumladan, fuqaroviy-huquqiy javobgarlik asoslari va tarkibiy qismlari hisoblanmish qonunga xilof harakat yoki harakatsizlik, yetkazilgan zararining mavjudligi, sababiy bog‘lanishni aniqlash hamda ayb.

Tadqiqotchi ma‘naviy zarar tushunchasini jismoniy yoki ruhiy azoblar shaklidagi zarar sifatida ta‘riflab, uning sud amaliyotidagi isbotlanish mexanizmlariga alohida e‘tibor qaratgan. Bunda psixologik ekspertizalar va zararining oqibatlari muhim ahamiyatga ega. Talqiqotda ma‘naviy zararni qoplash uchun moddiy tovon belgilanishi, sud amaliyotida adolatli va oqilona kompensatsiyaning miqdorini aniqlash mezonlari, kompensatsiyada jamiyatga tarqatilgan ma‘lumotning xarakteri, uning qamrovi va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish zarurligi kabilar tahlil qilinadi.

Javobgarlik turlarining asosiy jihatlari, shuningdek, shartnomadan tashqari huquqbuzarliklardagi javobgarlik mexanizmlari tahlil qilingan. Muallifning asosiy xulosasiga ko‘ra, ma‘naviy zararni qoplashni belgilashda huquqiy, ijtimoiy va psixologik omillarni uyg‘unlashtirish muhim. Bu jarayonda zarar yetkazgan shaxsning noqonuniy xatti-harakatlari hamda jabrlanuvchining ko‘rgan ma‘naviy va jismoniy azoblari o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni aniqlash asosiy o‘rin tutadi.

Muallif ichki ishlar organlari xodimlarining sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilishda amaldagi qonun hujjatlarida “sha‘n”, “qadr-qimmat” va “ishchanlik obro‘si” tushunchalarini aniqlashtirish talab etilayotganini, fuqarolik kodeksida tuhmat va haqoratga oid normalarni to‘ldirish, ayniqsa, Internetda tuhmat qilishga oid qoidalarni kiritish zarurligini xorijiy mamlakatlar qonunchiligi asosida tahlil qiladi. Tadqiqotchi tomonidan mualliflik ta‘riflari keltiriladi hamda asoslab beriladi. Xususan, insonning sha‘ni ijtimoiy qadriyat, axloqiy qadr-qimmat sifatida tavsiflanadi. Qadr-qimmat shaxsning shaxsiy daxlsizligi, erkinligi va tenglik huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq tushuncha sifatida belgilangan. Zero, ishchanlik obro‘si shaxsning kasbiy darajasi, ishonchliligi va kasbiy standartlarga mosligini aks ettiruvchi ijtimoiy baho sifatida ko‘riladi.

Tadqiqotchi tomonidan ichki ishlar vazirligi va uning hududiy tuzilmalari faoliyatining ochiqqligi, oshkoralik tamoyili asosida jamoatchilik bilan samarali hamkorlik qilish masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan. Shu bilan birga, ichki ishlar organlari faoliyati ustidan fuqarolar va OAV tomonidan monitoring olib borilishi orqali jamiyat ishonchini mustahkamlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ijobiy imijini shakllantirish, jurnalistik faoliyat bilan bevosita bog‘liq huquqiy mexanizmlar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi e‘tiborini ommaviy axborot vositalari va blogerlar tomonidan ichki ishlar xodimlari haqida tarqatiladigan axborotlarning huquqiy maqomi, axborotning haqqoniyligi, xolisligi, axloqiy meyorlarga rioya qilinishi hamda tuhmat va sha‘niga dog‘ tushirish holatlarida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tahliliga qaratadi. Shu jumladan, jurnalistlar va tahririyatlarning axborot uchun javobgarligi, rad javoblari, ma‘naviy zararni qoplash, javobgarlik shakllari va axborot manbalari bilan bog‘liq yuridik yechimlarga alohida e‘tibor qaratiladi.

Dissertant so‘z erkinligi va shaxs sha‘nini himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash masalasini xalqaro va milliy tajriba asosida tahlil qiladi. AQSh, Germaniya va Avstriya kabi davlatlar qonunchiligidagi huquqiy yondashuvlar, jurnalistik etika qoidalari, provayderlar javobgarligi, axborotning mazmuni va shakli asosida yuridik baholash mexanizmlari muhokama qilinadi. Shuningdek, ichki ishlar xodimlarining

ishchanlik obro'si va shaxsiy daxlsizligini himoya qilishga doir huquqiy mexanizmlar takomillashtirilishi lozimligi haqida ilmiy xulosalar keltirib o'tadi.

Tadqiqotchi bir qator muammolarni ko'rsatib o'tadi va asosli takliflar keltiradi. Jumladan, Internetda axborot tarqatishda nazorat va javobgarlik mexanizmlari yetarli emasligi qayd etilgan. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunda veb-saytlar va Internet manbalari uchun aniq huquqiy normalarni kiritish taklif qilingan. Tuhmatga oid ishlar uchun maxsus huquqiy normalarni joriy etish zarurligi ta'kidlangan. Ma'naviy zararni qoplash mexanizmlarini takomillashtirish, xususan, zararning miqdorini aniqlash uchun obyektiv mezonlar yaratish muhimligi, ichki ishlar organlari xodimlarining huquqlarini himoya qilish uchun maxsus nizom ishlab chiqish taklif qilingan. Sud ishlarida ichki ishlar xodimlariga yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus bo'linmalar tashkil etish zarurligi ta'kidlangan. Muallif ushbu yo'nalishlarni amalga oshirish orqali ichki ishlar organlari xodimlarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini samarali himoya qilish va zamonaviy huquqiy tizimni shakllantirishni nazarda tutgan.

